

**TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc. 03/30.12.2019.I.03.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

IGAMOVA SHAXINYA ZIKRILLOYEVNA

**QURILISH MATERIALLARI KORXONALARIDA INNOVATSION
JARAYONLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH
(BUXORO VILOYATI MISOLIDA)**

08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent - 2023

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) in economic
sciences**

Igamova Shaxinya Zikrilloyevna

Qurilish materiallari korxonalarida innovatsion jarayonlar samaradorligini oshirish
(Buxoro viloyati misolida).....3

Игамова Шахиня Зикрилловна

Повышение эффективности инновационного процесса на предприятиях
строительных материалов (на примере Бухарской области)26

Igamova Shaxinya Zikrilloyevna

Increasing the efficiency of innovation process at building materials enterprises (by
the example of Bukhara region)51

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....56

**TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc. 03/30.12.2019.I.03.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

IGAMOVA SHAXINYA ZIKRILLOYEVNA

**QURILISH MATERIALLARI KORXONALARIDA INNOVATSION
JARAYONLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH
(BUXORO VILOYATI MISOLIDA)**

08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent - 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Iqt2098 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tsue.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portali (www.ziyonet.uz)da joylashtirilgan.

| | |
|-----------------------------|---|
| Ilmiy rahbar: | Nurimbetov Ravshan Ibragimovich iqtisodiyot fanlari doktori, professor |
| Rasmiy opponentlar: | Gaibnazarova Zumrat Talantovna iqtisodiyot fanlari doktori, professor Abdullayev Axror Jaxbarovich iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent |
| Yetakchi tashkilot:: | Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti |

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat texnika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.I.13.05 raqamli ilmiy kengashning 2023 yil "____" _____ kuni soat _____ dagi majlisda bo'lib o'tadi. Manzil: Manzil: 100095, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 2-uy. Tel.: (99871) 246-46-00; faks:(99871)227-10-32. E-mail: tstu_info@tdtu.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat texnika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 2-uy. Tel.: (99871) 246-46-00; faks:(99871)227-10-32. E-mail: tstu_info@tdtu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil « ____ » _____ kuni tarqatildi.

(2023 yil) « ____ » _____ dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

M.A. Ikramov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

O.I. Begmullayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa
doktori, dotsent

G.J. Allayeva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot
fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahon amaliyotida innovatsion rivojlanish global xususiyatga ega bo'la borib, iqtisodiyotning barcha tarmoqlari va faoliyat sohaslarini qamrab olmoqda. Abu-Dabi deklaratsiyasi (2019) YuNIDO uchun bu sohadagi harakatlar uchun muhim yo'riqnomaga aylanib, mazkur tashkilot a'zo davlatlarga yangicha – “To'rtinchi sanoat inqilobi – barcha uchun farovonlik” yondashuvini taklif qildi. Bu yondashuv asosiga to'rtta element – innovatsiyalar, raqamli infratuzilma, raqamli ko'nikmalar, raqamli hamkorlik va sherikchilik qo'yilgandir”¹. Bugungi kunda jahonda innovatsion rivojlanish dinamikasi ortib borishi sharoitida qurilish materiallari korxonalarida innovatsion jarayonlar samaradorligini oshirish muhim muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

Jahonda qurilish materiallari korxonalarida innovatsion jarayonlar samaradorligini oshirish bo'yicha ishlab chiqarishni ratsional tashkil qilish, innovatsion rivojlanishni raqobatbardoshlikni ta'minlashning muhim omili sifatidagi yondashuvni takomillashtirish, bozorda raqobatlashuvning o'tkirlashuvi sharoitida mahsulotlar tarkibini takomillashtirish kabi yo'nalishdagi tadqiqotlarga ustuvor darajada qaratilmoqda. Bu borada sanoat korxonalarining innovatsion faoliyatini faollashtirish asoslarda ishlab chiqarish korxonalarining raqobatbardoshlik salohiyatini oshirish singari masalalar bo'yicha ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor berilmoqda.

O'zbekistonda iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida qurilish materiallari sanoatini jahon qurilish kompleksining texnologik taraqqiyoti tendensiyalariga muvofiq holda rivojlantirish, sohaning moddiy-texnologik asoslarini mustahkamlash, zamonaviy shakllarda qurilish sanoati ishlab chiqarishini tashkil qilish va mahsulotlar sifatini keskin darajada oshirish yuzasidan keng qamrovli dasturiy chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. “Bugungi kunda O'zbekiston davlat va jamiyat hayotining barcha sohaslarini tubdan yaxshilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo'liga o'tmoqda”². Bu borada qurilish materiallari sanoati korxonalarini ilmiy-ishlab chiqarish tuzilmalari samaradorligini oshirishda samarali shakllarda ishlab chiqarishni tashkil qilish, loyihaviy boshqaruvga ko'ra qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarining innovatsion loyihalar portfelini shakllantirish, resurs tejamkorligini oshirishning iqtisodiy dastaklarining ahamiyatligini baholash darajasini oshirish, mintaqada qurilish materiallarini ishlab chiqarishning prognoz ko'rsatkichlarini asoslash yo'nalishidagi tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish maqsadga muvofiq.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-maydagi PQ-3697-son “Innovatsion faoliyat va faol tadbirkorlikni rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yaratish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “Yangi O'zbekistonni 2022-2026 yillarda rivojlantirish strategiyasi to'g'risida”gi farmonlari, 2018-yil 7-maydagi PQ-3698-son “Iqtisodiyot tarmoqlari va sohaslariga innovatsiyalarni joriy qilish mexanizmlarini takomillashtirishi

¹ Birlashgan millatlar tashkiloti (sanoatni rivojlantirish bo'yicha) - <https://www.unido.org/sites/default>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. -Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2020. -B. 23.

bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori hamda mazkur yo'nalishdagi boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish borasida mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy hamda madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Iqtisodiyotda innovatsiyalarning turli jihatlar va innovatsion rivojlanish muammolari, shu jumladan, innovatika fani elementlari K. Allen, D. D.Bell, P.Druker, N.Mazur, R.Nelson, R.Fatxuddinov, S.Radosevich va boshqa bir qator tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida aks etgan³.

Y.Shumpeter iqtisodiy o'sishning innovatsion rivojlanishi konsepsiyasini shakllantiruvchi makroiqtisodiy modellar mexanizmlarini o'rganish sohasidagi o'z ilmiy ishlari bilan mashhurdir.

Ko'rib chiqilayotgan ilmiy yo'nalishda mamlakatimiz olimlaridan Zaynutdinov Sh.N., Ikramov M.A., Abdullayev L.M., Kupriyanidi K.I. Maxkamova M.A., A.Sh.Bekmurodov, B.B.Berkinov, G.Yuldashev, B.K.Goyibnazarov, Y.A.Alimov, R.Alimov, R.I.Nurimbetov, B. Kalmuratov va boshqalar faol izlanishlarni olib bormoqdalar⁴. Ularning tadqiqotlari ilm-fan va amaliyotga muhim ilmiy-metodik hissa qo'shadi.

Hozirgi vaqtda innovatsion faoliyatni rivojlantirish, bu jarayon samaradorligining o'sishi, boshqaruvning innovatsion metodlarini va innovatsion klasterli texnologiyalardan foydalanishni takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar hali yetarlicha keng tarqalmagandir. Buxoro viloyatidagi qurilish materiallari korxonalar faoliyatning natijalari tahlili ko'rsatadiki, innovatsion rivojlanish salohiyati yetarlicha to'liq o'rganilmagan va undan foydalanilmagan. Mazkur dalil ko'rib chiqilgan korxonalarining innovatsion rivojlanishini faollashtirish bo'yicha tadqiqotlar o'tkazilishi zarurati haqida xulosa chiqarishga

³ Аллен К. Продвижение новых технологий на рынок. – М.: БИНОМ. Лаборатория знаний, 2009. – 455 с.; Bell, D.G. Knowledge markets and communities: two approaches for supporting product development teams. Invited talk at the Fordham Graduate School of Business CEUG Consortium. / D.G. Bell; 2011. –New York, NY.; Мазур Н.З. Инновационная экономика: инновационные системы. Интеллектуальная собственность / Н.З. Мазур. – Самара: Издательство СНЦ РАН», 2001 Шумпетер Й.А. История экономического анализа. / Й.А. Шумпетер; Пер. с англ. под ред. В.С.Автономова. СПб.: Экон. шк.: С.-Петербург. гос. ун-т экономики и финансов; М.: Высш. шк. экономики, 2001. - 1664 с.; Фатхутдинов, Р.Ф. Инновационный менеджмент / М., 2016.; Радосевич С. Регион Инновацион Системс ин Централ анд Эастерн Эуроупе: Детерминантс, Организерс анд Алигнментс. – Бригхтон: Университи оф Суссекс, 2012.

⁴Зайнутдинов Ш.Н. Инновационный менеджмент. –Т.: Академия, 2006. –С.267; Икрамов М.А., Абдуллаев Л.М., Куприяниди К.И. Некоторые вопросы государственного регламента инновационного процесса: зарубежный опыт и практика Узбекистана. – Журн. «Инновационная экономика: перспективы развития и совершенствования», №2, 2013; Махкамова М.А. Теория инновационного менеджмента. Monografiya. – Tashkent, «Fan va texnologiya»,2019; Икрамов М.А., Алимов Е.А. Формирование спроса, как фактор инновационного развития Узбекистан. Материалы международной конференции. «Экономический рост России: проблемы и стратегические перспективы», с.38-44, 2019; Махкамова М.А. Особенности государственного регулирования инновационной деятельности. - Журн. Экономическое обозрение. № 12, 2003. с.21-29; Махкамова М.А. Жизненный цикл инноватсии и оценка стоимости интеллектуальной стоимости. Республ. научно-практическая конф.–Ташкент, 2011; Расулев А.Ф., Алимов Р. Стимулирование инновационной активности в экономике // Общество и экономика.–М.; Nurimbetov R.I., Kalmuratov B. Innovatsion boshqarish strategiyasining ahamiyati // Jamiyat va boshqaruv. –Т.: 2010 yil, № 2–В. 73-75.

imkon beradi. Hisoblaymizki, buni mustaqil tadqiqotning obykti sifatida qabul qilish lozim. Aynan mana shu jihat mazkur Dissertatsiya ishi mavzusining tanlab olinishga xizmat qildi.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi bo'lib Buxoro viloyati qurilish materiallari korxonalarida innovatsion jarayonlar samaradorligini oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

korxonaning innovatsion jarayoni samaradorligini faollashtirish va uning o'sishiga nazariy yondashuvlarni umumlashtirish va korxonalar rivojlanishida uning ahamiyatini belgilash;

tadqiq qilinayotgan tarmoq rivojlanishining asosiy tendensiyalarini aniqlash va korxonaning ichki hamda tashqi muhiti omillarini o'rganish;

iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitlarida innovatsion faoliyat rivojlanishini tahlil qilish;

qurilish materiallari sanoati korxonalarining barqaror innovatsion rivojlanishining metodik asoslarini shakllantirish;

innovatsion-faol korxonalarda samaradorlik o'sishi yo'llarini aniqlash;

qurilish materiallari korxonalarining innovatsion rivojlanishi bo'yicha tavsiyalar va takliflarni shakllantirish.

Tadqiqotning obykti bo'lib Buxoro viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish materiallari sanoati korxonalarini tanlangan.

Tadqiqotning predmeti qurilish materiallari sanoatida innovatsion jarayon samaradorligini oshirish jarayonidagi ijtimoiy-iqtisodiy va tashkiliy munosabatlardan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida tahlil, ilmiy va mantiqiy fikrlash, mantiqiy modellashtirish, ekspertli baholash, statistik va taqqoslama tahlil kabi usullardan foydalanish belgilangan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

qurilish materiallari ishlab chiqarish sohasida ilmiy-ishlab chiqarish klasteri qismlarining funksional vazifalari va sohani rivojlantirishning istiqbol maqsadlariga ko'ra kouching markazini tashkil etishning maqsadga muvofiqligi asoslangan;

loyihaviy boshqaruvga ko'ra mintaqadagi qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarining to'rtta blokdan iborat bo'lgan innovatsion loyihalari portfelini shakllantirishning maqsadga muvofiqligi asoslanib, undan foydalanish bosqichlari ishlab chiqilgan;

qurilish materiallari korxonalarida resurs tejamliligini oshirish vosita (iqtisodiy dastak) va chora-tadbirlarining ahamiyatligini ekspertli baholash asosida tarmoq korxonalarida innovatsion biznes-loyihalardan foydalanishning maqsadga muvofiqligi asoslangan;

mintaqada qurilish materiallarini ishlab chiqarishning 2023-2027 yillarga mo'ljallangan prognoz ko'rsatkichlari va tarmoqning eksport salohiyatini oshirishning istiqbol ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

viloyatdagi qurilish materiallari sanoati korxonalarida innovatsion jarayonlar samaradorligini oshiruvchi mintaqaviy axborot-tahliliy platforma tuzilmasi ishlab chiqilgan;

qurilish materiallari korxonalarining innovatsion faoliyatini faollashtirishning ahamiyati va tutgan o'rni belgilangan;

mintaqadagi qurilish materiallari sanoati korxonalarining innovatsion jarayoni samaradorligini oshirish bo'yicha metodik materiallar shakllantirilgan va o'z ichiga innovatsion-ishlab chiqarish klasterini tashkil etish, innovatsion-tahliliy platformani shakllantirish, biznes-loyihalarni boshqarish metodini qo'llash va korxonalarni innovatsion rivojlanish sohasida quvib yetuvchi strategiyadan ilgari lanma strategiyaga o'tishga yo'naltirish orqali innovatsion mahsulotlar bilan ishlashning samarali reglamentini shakllantirishni oluvchi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmning asosiy qoidalari shakllantirilgan;

mintaqada bajarilgan qurilish ishlarining real qiymati modeli yordamida prognoz qiymatlari va 2022-2026 yillarga mo'ljallangan qurilish-montaj ishlari real qiymatining prognoz ko'rsatkichlari, shuningdek, tarmoq mahsulotlarini eksport qilishning ijobiy istiqbolli trendi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llanilgan usullar va yondashuvning maqsadga muvofiqligi, ma'lumotlarning rasmiy manbalardan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi qurilish vazirligidan olingani, tadqiqotlar zamonaviy metodlarga tayangani, olingan natijalar amaliyotga joriy qilingani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ishlab chiqilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar va takliflar mintaqalarda qurilish materiallari sanoati korxonalarini barqaror innovatsion rivojlantirishning uslubiy asoslarini takomillashtirishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarning amaliy ahamiyati qurilish sanoati materiallari korxonalarining faoliyati samaradorligini oshirish va barqaror rivojlantirish, sohani samarali rivojlantirishning istiqbollari ishlab chiqish bo'yicha tegishli materiallarni tayyorlashda hamda oliy ta'lim muassasalari uchun o'quv materiallarini tayyorlash va kelgusi tadqiqotlar uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Buxoro viloyati qurilish materiallari korxonalarida innovatsion jarayonlar samaradorligini oshirish bo'yicha ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar asosida:

qurilish materiallari ishlab chiqarish sohasida ilmiy-ishlab chiqarish klasteri qismlarining funksional vazifalari va sohani rivojlantirishning istiqbol maqsadlariga ko'ra kouching markazini tashkil etish taklifi asosida BuxMTIda kouching markazi tashkil etilgan (Buxoro viloyati hokimligining 2023-yil 8-avgustdagi 3/4877-son ma'lumotnomasi) Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi klaster

ishtirokchilari tomonidan funksional vazifalarning samarali bajarilishi va maxsus kouching markaz tomonidan soha uchun malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirish imkonini bergan;

loyihaviy boshqaruvga ko'ra mintaqadagi qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarining to'rtta blokdan iborat bo'lgan innovatsion loyihalari portfelini shakllantirish va undan foydalanish bosqichlari bo'yicha taklif Buxoro viloyatidagi "Buxoro temir-beton" MChJ qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonasiga joriy etilgan (Buxoro viloyati hokimligining 2023 yil 08 avgustdagidagi 3/4877-son, Buxoro viloyatidagi "Buxoro temir-beton" MChJning 2023 yil 7 fevraldagi 2-son ma'lumotnomalari). Natijada mazkur korxonada innovatsion loyihalar asosida qurilish materiallarini ishlab chiqarish samaradorligi 12,0 % ga ortishiga xizmat qilgan;

qurilish materiallari korxonalarida resurs tejamkorligini oshirish vosita (iqtisodiy dastak) va chora-tadbirlarining ahamiyatligini ekspertli baholash asosida tarmoq korxonalarida innovatsion biznes-loyihalardan foydalanishning maqsadga muvofiqligi taklifi O'zbekiston Respublikasi qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi Buxoro viloyat qurilish bosh boshqarmasi amaliyotiga joriy etilgan (O'zbekiston qurilish materiallari sanoati korxonalarini uyushmasining 2023 yil 11-maydagi 05/15-1019-son ma'lumotnomasi) Mazkur taklif qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida resurs tejamkorlik ko'rsatkichining 12,4 %ga ortishiga muayyan darajada ta'sir ko'rsatgan;

mintaqada qurilish materiallarini ishlab chiqarishning 2023-2027 yillarga mo'ljallangan prognoz ko'rsatkichlari va tarmoqning eksport salohiyatini oshirishning istiqbol ko'rsatkichlaridan "Buxoro viloyatida qurilish va qurilish sanoati mahsulotlarini ishlab chiqarishni rivojlantirish"ni ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston qurilish materiallari sanoati korxonalarini uyushmasining 2023 yil 11-maydagi 05/15-1019-son ma'lumotnomasi). Prognoz ko'rsatkichlaridan foydalanish istiqbolda ishlab chiqarish hajmini oshirishning qo'shimcha imkoniyatlarini ishlab chiqarishga jalb qilishga muayyan darajada xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsion tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 2 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 16 ta ilmiy ishlar, jumladan Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan respublika jurnallarida 4 ta va xalqaro miqyosdagi ilmiy jurnallarda 6 ta maqola chop etilgan.

Dissertatsiya tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, to'qqizta paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat hamda ishning umumiy hajmi 152 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti belgilangan, tadqiqot mavzusining respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi,

tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan. Olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati izohlab berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, nashr qilingan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Raqamlashtirish sharoitlarida qurilish materiallari sanoati korxonalaridagi innovatsion jarayonlar samaradorligining nazariy-uslubiy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobda iqtisodiyotning hozirgi davrdagi rivojlanishining asosi sifatida innovatsion faoliyat va innovatsion rivojlanishning mohiyati va ahamiyati, qurilish materiallari korxonalarining innovatsion rivojlanishini faollashtirish usullari, samarali innovatsion rivojlanishini ta'minlashning yo'nalishlari kabi masalalar ko'rib chiqilgan.

Innovatsiyalar tushunchasining tasniflanishi va talqin qilinishiga asoslangan holda dissertatsiyada aniqlandiki, innovatsiyalar texnologiyalar, tijoratlashtirish, ijtimoiy tizimlar, iqtisodiy rivojlanish bilan aloqadorlik jihatidan olib qaraladi, garchi, xorijda turli firmalar tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra innovatsiya bozor talablariga qaratilgan bo'lishiga qaramasdan, marketing bilan kamroq darajada olib qaraladi.

Ta'kidlandiki, AQShda o'tkazilgan muvaffaqiyatli innovatsion mahsulotlarning qiziqarli tadqiqotlari ko'rsatishicha, mahsulotlarning 80%i bozor talablari bilan yuzaga kelgan g'oyalar asosida ishlab chiqilgan, Buyuk Britaniyada SAPPHO loyihasi doirasida o'tkazilgan tadqiqotlar esa muvaffaqiyatning asosiy omillaridan biri bo'lib bozor talablarining qondirilishi hisoblanishini tasdiqladi, Hewlett-Packard kompaniyasi vakillari esa bozor talablarini tushunish – mahsulot muvaffaqiyatning asosiy omili ekanligini aytib o'tadilar⁵.

O.Shenkarning⁶ tadqiqotlariga ko'ra, innovatsion rivojlanishda imitatsiyalash katta rol o'ynaydi. Innovatsiyalar tomonidan yaratiladigan qiymatning amalda 98 %i imitatorlar tomonidan ta'minlanadi. Innovatsiyalar bo'yicha ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish bo'yicha Uslubiy tavsiyalar⁷ (Oslo Yo'riqnomasi)da innovatsion faoliyat deganda innovatsiyalarni amalga oshirish yoki mana shu maqsadlarda o'ylab chiqilgan barcha ilmiy, texnologik, tashkiliy, moliyaviy va tijoriy harakatlar, shuningdek, qandaydir konkret innovatsiyalarni tayyorlash bilan bog'liq bo'lmagan tadqiqotlar va ishlanmalar tan olinib, bunda mazkur faoliyatning ayrim turlari o'z holicha innovatsion bo'lib hisoblanadi, boshqalari esa bunday xossaga ega bo'lmaydi, lekin shu bilan birga ular ham innovatsiyalarni amalga oshirish uchun zarurdir.


Iqtisodiyot turli tarmoqlaridagi korxonalar va tashkilotlar eng zamonaviy texnologiyalardan foydalanish asosida an'anaviy o'zaro harakatlar jarayonlarini raqamli texnologiyalar bilan almashtirishlari zarur. Ko'pincha transformatsiya korxonalar mana shunga qaror qilganliklari uchun emas, balki yashab qolish uchun

⁵Петпуненков А.А. Организация разработки нового товара. – М.: АНХ, Центр коммерциализации технологий, 2012. – 288 с.

⁶ Oded Shenkar «Copycats: How Smart Companies Use Imitation to Gain a Strategic Edge». – Harvard Business Press. - 256 p

⁷ Пуководство ОСЛО. Рекомендации по сбору и анализу данных по инновациям. Третье издание. Перевод на русский язык. Государственное учреждение "Центр исследований и статистики науки" (ЦИСН), 2010. – 107 с.

zarur bo‘lib qolganligi sababli ro‘y beradi. Biroq, iqtisodiyotdagi an’anaviy tarmoqlar uchun eng qiyini bo‘lib texnologiyalarni yaratish va integratsiyalashning o‘zi emas, balki korporativ madaniyat va tashkil etishning prinsipial jihatdan qayta tuzilishi sanaladi. Raqamli transformatsiya qurilish materiallari korxonalar faoliyatiga quyidagi asosiy afzalliklarni taqdim eta oladi (1-rasm).



1-rasm. Qurilish materiallari korxonalarida raqamli transformatsiyaning asosiy afzalliklari⁸

Tadbirkolik mentaliteti uchun xos bo‘lgan iterativ, adaptiv yondashuv, tavakkalga ancha yuqori tolerantlik ko‘p jihatdan yirik biznesni boshqarishda shakllangan yondashuvlar uchun begonadir. Bugungi kunda istalgan tarmoq va kompaniyaning tuzilmasi konstanta sifatida emas, balki asosiy o‘zgaruvchi sifatida qabul qilinishiga o‘rganish juda qiyin bo‘ladi.


Tadqiqotning mazkur nazariy qismida jahon iqtisodiyotida innovatsion rivojlanishni faollashtirishning dolzarbligi ortib borishi; bilimlar va ishlab chiqarishning yangi tarmoqlari yuzaga kelishida ifodalanayotgan innovatsion jarayonlarning jadallashuvi va sifat o‘zgarishlarining ustunlik qilishi; iqtisodiyotning va umuman butun jamiyatning rivojlanishiga innovatsion jarayon ta’sirining dominantasi; tarmoqlar va mintaqalar darajasida innovatsion rivojlanishni boshqarish tizimini shakllantirishda klaster yondashuvidan foydalanish iqtisodiyot va jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida spontan hamda dinamik o‘zgarishlar sharoitlarida innovatsion rivojlanishning samaradorligi va barqarorligini ta’minlashi haqidagi fakt tan olinishi; iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish sharoitlarida davlat boshqaruvi funksiyalarining transformatsiyalashuvi va davlat rolining dominantasi o‘sib borishi kabi xususiyatlar aniqlandi.

Dissertatsiya ishining “**Milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida qurilish materiallari korxonalaridagi innovatsion jarayonlarning amaldagi holati tahlili**” nomli ikkinchi bobida iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi pozitsiyasidan Buxoro viloyatida qurilish materiallari korxonalarining rivojlanishi holati va tendensiyalari tahlili amalga oshirilgan, qurilish materiallarini ishlab

⁸Ilmiy adabiyotlarni o‘rganish asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

chiqarishning tashkiliy-iqtisodiy xususiyatlari o‘rganilgan, mintaqadagi qurilish materiallari sanoati korxonalarining innovatsion faoliyatini rivojlantirishning hozirgi davr holati o‘rganilib, qurilish materiallarini ishlab chiqarish tarmog‘ining asosiy tendensiyalari, muammolari va istiqbollari aniqlangan.

Dissertatsiyada ta’kidlanadiki, Buxoro viloyatining yalpi hududi mahsuloti (YaHM) ko‘rsatkichi bo‘yicha 2010-2022 yillar mobaynidagi o‘zgarishlarni ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, u holda mazkur o‘zgarishlarning ijobiy dinamikada ortib borishini ko‘rishimiz mumkin (2-rasm). Bu yerda yana bir shunday xususiyat ham mavjudki, tahlil qilinayotgan yillar mobaynida viloyat YaHM ning o‘sishi ham absolyut, ham nisbiy miqdorlarda doimiy ravishda ortib borgan. Bu esa viloyatning iqtisodiy salohiyati baquvvatligidan, hududda innovatsion rivojlanish uchun imkoniyatlar mavjud ekanligidan darak beradi.



2-rasm. Buxoro viloyati bo‘yicha 2010-2022 yillardagi YaHM dinamikasi, mlrd.so‘m.⁹

Viloyatda mahsulotlar eksporti ham mavjud bo‘lsa-da, lekin ta’kidlab o‘tish lozimki, uning ulushi importga nisbatan sezilarli ravishda ortda qolmoqda.

Buxoro viloyati so‘nggi yillarda sezilarli ijtimoiy-iqtisodiy natijalarga erisha olgan. Xususan, viloyatda bir qator ahamiyati yirik bo‘lgan sanoat obyektlari ishga tushirildi, mahsulotni qayta ishlash bilan band bo‘lgan korxonalar ulushi ortdi; chet el kapitalini jalb qilish jarayoni ortib bormoqda: hozirgi vaqtga kelib chet el kapitaliga ega bo‘lgan bir qancha korxonalar tashkil etilgan va ular muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatib kelmoqda; eksport va ishlab chiqarishni mahalliyashtirish yo‘lga qo‘yilmoqda; ahamiyati katta bo‘lgan tarmoqlar faoliyati kuchayib borayapti.

Mintaqada qurilish materiallarini ishlab chiqarishning innovatsion rivojlanishidagi hozirgi davr holatining tahlili ko‘rsatadiki, bugungi kunda nafaqat qurilish materiallariga ichki bozorda bo‘lgan talab qondirilmoqda, balki ular ko‘plab miqdorda eskport ham qilinmoqdadir.

Buxoro viloyatida asosiy qurilish materiallarini ishlab chiqarish dinamikasi yetarlicha yuqori sur‘atlarga ega bo‘lib, bunda ishlab chiqarish hajmlarining barqaror o‘sishi mavjudligini ko‘rish mumkin (1-jadval).

⁹Muallif ishlanmasi.

1-jadval

Buxoro viloyatida ayrim turdagi asosiy qurilish materiallarini ishlab chiqarish hajmlari dinamikasi (tonna)¹⁰

| Nomi | 2010 yil | 2018 yil | 2020 yil | 2022 yil | 2020-2010 yilning farqi | 2022 yilning 2010 yilga nisbati, % |
|--|-------------|-------------|-------------|-------------|-------------------------------|---|
| Sement, beton yoki sun'iy toshdan tayyorlangan g'isht va bloklar | 10125,2 | 20228,9 | 34808,1 | 64803,6 | 54678,4 | 6,4 m |
| Sement, beton yoki sun'iy toshdan tayyorlangan cherepitsa, plita va shunga o'xshash buyumlar | 6856,5 | 10767,1 | 58902,0 | 42957,3 | 36100,8 | 6,3 m |
| Sement, beton yoki sun'iy toshdan tayyorlangan yig'ma konstruksiyalar elementlari va binolar uchun boshqa buyumlar | 145568,1 | 217955,9 | 281191,4 | 301722,9 | 156154,8 | 2,1 m |
| Quyish uchun tayyor beton | 11456,4 | 24935,8 | 25714,3 | 39822,4 | 28366 | 3,5 m |
| Qorishmalar va qurilish aralashmalari | 4561,5 | 9028,0 | 10519,9 | 22135,4 | 17573,9 | 4,8 m |
| Sement, beton yoki sun'iy toshdan tayyorlangan, boshqa buyumlar | 4125,4 | 8 330,0 | 14392,0 | 10740,1 | 6614,7 | 2,6 m |

Ma'lumotlar ko'rsatadiki, tadqiq qilinayotgan ishlab chiqarish sohasi mintaqa iqtisodiyotida muhim ahamiyatga ega bo'lib hisoblanadi va bugungi kunlarga kelib viloyatda iste'molchilar ehtiyojlarini yanada yaxshiroq qondirish maqsadlarida ishlab chiqarish hajmini sezilarli ravishda oshirishga erishildi, qurilish materiallar nomenklaturasini uzluksiz yangilab borish jarayoni davom etmoqda, tarmoqning moddiy bazasi mustahkamlanmoqda, innovatsion texnologiyalar va materiallar (tabiiy pardoqlash toshlarini qazib olish va qayta ishlash, progressiv quruq aralashmalarni, gipsokarton buyumlarni va boshqa ko'plab shu kabilar) ishlab chiqarilmoqda.

Yuqoridagi jadvaldan ko'rish mumkinki, ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish dinamikasi vaqt davomida mazkur mahsulotlarga bo'lgan talab dinamikasi bilan kelib chiqadigan mahsulot ishlab chiqarishning o'zgaruvchanligini aks ettiradi.

Uzoq muddatli istiqbollarda qurilish materiallarini ishlab chiqarish tarmog'ini rivojlantirishning jozibadorligi saqlanib qoladi va bu quyidagi imkoniyatlar bilan shartlanadi:

- qabul qilingan urbanizatsiya bo'yicha davlat strategiyasi bilan bog'liq holda qurilish materiallari mahsulotlariga talabning oshish istiqbollari;
- ishlab chiqarish infratuzilmasi va sanoat qurilishining rivojlanishi, shu jumladan, uy-joy, ijtimoiy va infratuzilma qurilishi hajmlarining ortishi;
- og'ir vaznli mahsulotlar narxi shakllanishida transport xarajatlari ulushi yuqoriligi sababli uzoq masofalarga tashish iqtisodiy samarasizligi ortidan mahalliy

¹⁰Muallif tomonidan Buxoro viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

mahsulotlarni ishlab chiqarish hisobiga qurilishi materiallari bozorini shakllantirishning o‘ziga xosliklari;

- tarmoq rivojlanishining mavjud yuqori salohiyati va bozorning sezilarli qismini egallab turgan import mahsulotlar (qora metall, yog‘och, pardozlash materiallari, santexnika qurilmalari)ni mahalliy bozordan siqib chiqarish imkoniyati;

- bir qator investitsion, soliq preferensiyalari, davlat innovatsion grantlarini taqdim etish, bojxona bojlaridan ozod qilish bilan mazkur tarmoqni rivojlantirishning ma’lum bir darajadagi ustuvorligi;

- ishlab chiqarish hajmlari o‘shishi sharoitlarida tarmoqning yetarlicha yuqori samaradorligi.

2-jadval

Buxoro viloyatining qurilish materiallari sanoatida innovatsion faollikning o‘shish istiqbollarini baholash uchun taqdim etilgan SWOT-tahlil natijalari¹¹

| Strength (Kuchli tomonlari) | Weaknesses (Zaif tomonlari) |
|---|--|
| <ol style="list-style-type: none"> 1. Viloyatda qurilish hajmlarining barqaror o‘shish tendensiyalari mavjudligi; 2. Tarmoqning rivojlangan xomashyo bazasi mavjudligi; 3. Tarmoq rivojlanishini mahalliy va markaziy davlat organlari tomonidan qo‘llab-quvvatlash; 4. Mintaqada yirik ta’lim muassasalari va kadrlar ta’minoti o‘shishi salohiyatining mavjudligi. | <ol style="list-style-type: none"> 1. Korxonalarda ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi pastligi; 2. Korxonalarning noratsional dislokatsiyasi (qurilish zich borayotgan joylardan uzoqdaligi); 3. Ishlab chiqarishning yetarli bo‘lmagan texnologik darajasi; 4. Xomashyo salohiyatidan to‘la foydalanmaslik va mahsulotlarning tor nomenklaturasi; 5. Ishlab chiqarish sarflarining, ayniqsa, energiya resurslari sarfining yuqori darajasi; 6. Ko‘pchilik mahsulotlar turining yuqori yuk sig‘imi; 7. Mehnat unumdorligi darajasining pastligi; 8. Mashina va mexanizmlarni me’yoriy yangilashni ta’minlashga mablag‘lar yetishmasligi; 9. Korxonalarda innovatsion faollikning pastligi; 10. Tarmoq korxonalari tiplarining har xilligi. 11. Innovatsion tashabbuskorlik ko‘rsata oladigan mutaxassis-kadrlar salmog‘ini pastligi. |
| Opportunities (Imkoniyatlar) | Threats (Tahdidlar) |
| <ol style="list-style-type: none"> 1. Viloyatda qurilish ishlari hajmi o‘shishiga mos holda qurilish materiallarini ishlab chiqarishning ortishi; 2. Korxonalar ishlab chiqarish-texnik bazasini mustahkamlash va ishlab chiqarishning texnik jihozlanishini yaxshilash; 3. Viloyatning xomashyo salohiyatidan yanada to‘laroq foydalanish va mahsulot nomenklaturasini kengaytirish; 4. Kadrlar salohiyatini oshirish va kompetensiyalarini rivojlantirish; 5. Ishlab chiqarish sarflarini kamaytirish va energiya tejamkorligini oshirish hisobiga mahsulot raqobatbardoshligin darajasini oshirish. | <ol style="list-style-type: none"> 1. Qurilish materiallarini ishlab chiqarish hajmlari qisqarishi, mahsulot sifatining yo‘qolishi va korxonalar raqobatbardoshligi darajasining tushib ketishi; 2. Qurilishning mahalliy materiallar bilan ta’minlanganligining pasayishi va qurilish qiymatining oshishi. Viloyatda investitsion jozibadorlikning pasayishi. 3. Mahsulot eksportining qisqarishi va import qilinadigan (viloyatga olib kiriladigan) qurilish materiallari hajmlari ortishi. |

¹¹Muallif ishlanmasi.

Muallif fikricha, Buxoro viloyatida qurilish materiallari ishlab chiqarish tarmog'ining rivojlanishdagi kuchsiz tomonlari va ehtimoliy tavakkallari quyidagilardan iborat:

- qurilish materiallarini ishlab chiqarishning va ayniqsa, xomashyo bazasini o'zlashtirish bo'yicha obyektiv yuqori kapital sig'imi;
- bir qator o'ziga xos omillar bilan bog'liq holda tarmoqda mavjud bo'lgan quvvatlardan foydalanish samaradorligining pastligi;
- import mahsulotlar bilan taqqoslagan holda mahalliy korxonalar mahsulotlar raqobatbardoshligining pastligi;
- mehnat unumdorligi pastligi, moddiy va energiya sarflari darajasining yuqoriligi.

Buxoro viloyatining qurilish materiallari sanoatida innovatsion faollik o'sishi istiqbollari baholash uchun amalga oshirilgan SWOT-tahlili ham qurilish materiallarini ishlab chiqarishning samarali innovatsion rivojlanishining ahamiyatli salohiyati mavjudligini, ham tarmoq korxonalarida innovatsion jarayonlarning mavjud holatini saqlab qolish vaziyatidagi ehtimoliy oqibatlarni ko'rsatadi (2-jadval).

Dissertatsiya ishning **“Qurilish materiallari korxonalarida innovatsion jarayonlar samaradorligini oshirish istiqbollari”** nomli uchinchi bobi viloyatdagi qurilish materiallarini ishlab chiqarish korxonalarida innovatsion jarayonlarning samaradorligini ta'minlash uchun klaster yondashuvidan foydalanish; mintaqadagi qurilish materiallari sanoati korxonalarida innovatsion rivojlanish jarayonlari samaradorligini ta'minlashning asosiy yo'nalishlari va innovatsion rivojlanish jarayonlarini takomillashtirishning iqtisodiy yo'nalishlari hamda Buxoro viloyatida qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoatining 2023-2027 yillardagi rivojlanishi bo'yicha prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqish masalalariga bag'ishlangan.

Tadqiq etilayotgan tarmoqdagi bir qator korxonalarining moliyaviy holati beqarorligini va investitsion imkoniyatlarning mavjud yetishmovchiligini hisobga olib, dissertatsiyada mamlakatimiz qurilish materiallari sanoatida birinchi marta qo'llash uchun innovatsion taklif sifatida hozirgi kunda ayrim mamlakatlarda keng tarqalib ulgurgan sanoat ipotekasi metodidan foydalanish taklif etiladi. Bu metod asosan yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tezda ishga tushirish, o'zlashtirilayotgan tovarlarni qo'shimcha ishlab chiqarish, bozordagi bo'sh joylarni egallashgan qaratilgan va ko'p jihatdan yangi istiqbolli ishlab chiqarishlarni rivojlantirishni ko'zda tutadi. Hisoblaymizki, mazkur metodning qo'llanilishi tavakkallarni pasaytirish va investitsiyalar samaradorligini oshirish hamda kreditlar qaytariluvchanligini oshirishga imkon beradi.

Shu bilan birga ta'kidlab o'tish zarurki, so'nggi yillarda raqamli platformalar katta ahamiyatga ega bo'lib qoldi. Shundan kelib chiqib, Buxoro viloyatida qurilish materiallari sanoati korxonalarining innovatsion rivojlanishini ta'minlash usullaridan biri sifatida maxsus platformani ishlab chiqish zaruratini belgilaydi. Platformaning asosiy vazifasi sheriklarning maqsadga erishish yo'lida birlashuvidan iborat bo'lib, bu innovatsiyalar portfelining kengayishiga va innovatsion jarayondagi barcha ishtirokchilar uchun qadriyatlarining yaratilishiga yordam beradi.

Raqamli innovatsion platforma biznes trayektoriyasini tubdan o'zgartirishga imkon yaratadi. Bu esa shuni anglatadiki, bunga ko'ra bo'lajak raqamli innovatsiyalar o'z ichiga turli tarmoqlarda ma'lumotlar va xizmatlarning tez-tez almashib turishni oladi. Bir qator cheklangan tarmoqlar orqali xizmatlar va boshqa resurslarni almashishning eski amaliyoti o'rniga bir nechta tarmoqlarni qamrab oladigan yangi raqamli tizimlar kirib keladi.

Ravshanki, AKT ustunliklaridan faqat mahorat bilan foydalanilgandagina joriy va strategik rejalarda muvaffaqiyatli innovatsion jarayonlarni amalga oshirishni ta'minlay oladi, bu bilan korxonalarining samaradorligi hamda raqobatbardoshligi oshirilishiga erishiladi. Innovatsion jarayonning tarmoqli o'zaro harakatlari sharoitlarida Internet rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan axborot almashinuvi jarayonlari intensivligi va ko'lami kengaydi, bu jarayonning barcha ishtirokchilariga global elektron muhitda ishlash imkonini beradi.

Bir qator mamlakatlar¹² tajribalaridan kelib chiqib biz Buxoro muhandislik-texnologiya institutida quyida keltirib o'tilgan 3-jadvalda tasvirlanganidek funksiyalarga ega bo'lgan kouching-markazni tashkil etishni taklif etamiz.

3-jadval

BuxMTI huzuridagi kouching-markazning asosiy funksiyalari¹³

| Faoliyat turi | Faoliyat mazmuni |
|----------------------------------|--|
| <i>Maslahat</i> | – korxonalarni yo'naltirish va venchur investorlarni jalb qilish; – venchur investorlar bilan kommunikatsiyalarga tayyorlash doirasida, shuningdek, venchur yarmarkalar doirasida korxonalariga ekspertli yordam ko'rsatish; – mintaqadagi innovatsion korxonalariga konsultatsion yordam ko'rsatish. |
| <i>Ta'lim berish</i> | – potensial investor bilan o'zaro harakatlarning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish, bunda eng muhimi bo'lib korxonalar menejerlarida venchur investitsiyalarni muvaffaqiyatli jalb etish maqsadlarida o'zlarining biznes-loyihalarini samarali taqdimot qilish ko'nikmalarini rivojlantirish hisoblanadi; – innovatsion sektor rivojlanishi va venchurli moliyalashtirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishga ma'sul bo'lgan mintaqaviy hokimiyat xizmatchilari hamda korxonalar vakillari uchun trening va maslahatlar o'tkazish. |
| <i>Trening va metodik ishlar</i> | - ilm talab loyihalar va innovatsion korxonalar menejerlari, venchur investorlar bilan. |
| <i>Axborot</i> | – zamonaviy telekommunikatsiya dastaklari imkoniyatlarini jalb qilish va mintaqaviy OAV dan foydalanish bilan kouching-markaz faoliyati haqida axborotlarni tarqatish; – turli xil kommunikativ chora-tadbirlar (mintaqaviy venchur yarmarkalari, davra suhbatlari, anjuman, seminar va h.k.)ni o'tkazish va innovatsion faoliyatning asosiy sub'ektlari uchun konsultatsion hamda axborot xizmatlarini taqdim etish. |


Tadqiq etilayotgan tarmoqdagi bir qator korxonalarining moliyaviy holati beqarorligini va investitsion imkoniyatlarning mavjud yetishmovchiligini hisobga olib, dissertatsiyada innovatsion taklif sifatida hozirgi kunda ayrim mamlakatlarda

¹²Фоломев А.Н. Переход к инновационному типу развития экономики: кейз-стади / А. Н. Фоломев; РАГС при Президенте РФ, Кафедра экономики и государственного регулирования рыночного хозяйства. – М. : Изд-во РАГС, 2011.

¹³Muallif tomonidan tayyorlangan.

keng tarqalib ulgurgan sanoat ipotekasi metodidan foydalanish taklif etiladi. Bu metod asosan yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tezda ishga tushirish, o'zlashtirilayotgan tovarlarni qo'shimcha ishlab chiqarish, bozordagi bo'sh joylarni egallashgan qaratilgan va ko'p jihatdan yangi istiqbolli ishlab chiqarishlarni rivojlantirishni ko'zda tutadi. Hisoblaymizki, mazkur metodning qo'llanilishi tavakkallarni pasaytirish va investitsiyalar samaradorligini oshirish hamda kreditlar qaytariluvchanligini oshirishga imkon beradi. Raqamli texnologiyalarga va raqamli texnologiyalardan foydalanishga qiziqishning kuchayishi ko'plab omillar bilan, avvalo, iqtisodiyot samaradorligi va aholi turmush darajasining keskin o'sishi imkoniyatiga egaligi bilan kelib chiqqandir. Bu texnologiyalar raqobat muhitini kuchaytirishga imkon beradi va raqamli texnologiyalarni o'zlashtirgan raqobatchilarga bozor o'zgarishlariga tezkorlik bilan moslashish qobiliyatini beradi.

Shularni inobatga olib, dissertatsiya ishi mintaqada faoliyat yuritib kelayotgan qurilish materiallari korxonalariga mo'ljallangan klaster axborot-tahliliy platformasining tuzilmasi ishlab chiqildi (3-rasm).




3-rasm. Mintaqa qurilish materiallari sanoati korxonalarini axborot-tahliliy platformasining tuzilmasi¹⁴

Innovatsion rivojlanishning hozirgi davr amaliyotidan kelib chiqib mazkur tadqiqotda innovatsiyalar va innovatsion loyihalarni innovatsion-investitsion biznes-loyihalar sifatida ko'rib chiqish taklif etiladi. Bunda innovatsiyalarni shakllantirish va innovatsion portfelni yuritish innovatsion faoliyatning muhim va boshlang'ich elementi bo'lib hisoblanadi hamda u muhim o'rin egallaydi.

¹⁴Muallif tomonidan tayyorlangan.

Korxonadagi innovatsion loyihalar portfeli bilan ishlashning asosiy jarayonlari 4 bosqichda amalga oshiriladi.

Qurilish materiallarini ishlab chiqarish korxonalarining innovatsiyalar portfeli shakllantirish va uni olib borish bo'yicha faoliyat mazkur korxonalarda innovatsion faoliyatning boshlang'ich va muhim bosqichi bo'lib sanaladi hamda o'z ichiga quyidagilarni oladi (4-rasm)



4-rasm. Innovatsiyalar portfeli shakllantirish bosqichlari¹⁵

Bu yerda 1-blokda turli xil manbalar (OAV, ilmiy-texnik axborotlar, raqobatchilar faoliyatini o'rganish) asosida texnik, texnologik va tashkiliy pozitsiyalardan turib innovatsion loyihalar aniqlanadi. Keyin 2-blokda innovatsiyalarning iqtisodiy samaradorligini baholash va bu mezonlar bo'yicha ularni zanjirlash amalga oshiriladi.

Innovatsiyalarni joriy qilish dasturlarini shakllantirish davomida eng yuqori ustuvorlikka ega bo'lgan innovatsiyani tanlab olish amalga oshirilib, korxonaning boshqa parametrlari va imkoniyatlari bo'yicha mos kelish vaziyatida innovatsiya joriy qilish dasturiga kiritiladi (3-blok). So'nggi 4-blokda o'z dolzarbligini yo'qotgan, eski innovatsiyalarni hisobdan chiqarish yo'li bilan ishonchlilikni ta'minlash maqsadida innovatsiyalar portfeli davriy taftish qilinishi o'tkaziladi.

Buning natijasida innovatsion loyihalarning samaradorligini baholash mumkin bo'ladi. Shunga ko'ra, Buxoro viloyati qurilish materiallari ishlab chiqarish sohasida faoliyat ko'rsatib kelayotgan "Buxoro temir-beton" MChJ ning 2021-2022 yillardagi ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyatida temir-beton qurilish mahsulotlarini ishlab chiqarish loyihasining samaradorlik ko'rsatkichlarini baholaydigan bo'lsak, u holda quyidagi ma'lumotlarni olish mumkin bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 10-fevraldagi 70-son qaroriga 3-ilovada belgilangan chora-tadbirlar doirasida Buxoro shahrida faoliyat yuritib kelayotgan "Buxoro temir-beton" MChJ ning temir-beton mahsulotlari ishlab chiqarishni tashkil etish bo'yicha investitsion loyihasida yiliga 8,0 ming kub-metr temir-beton mahsulotlari ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

¹⁵Muallif tomonidan tayyorlangan.

3-jadval

“Buxoro temir-beton” MChJ ning temir-beton mahsulotlari ishlab chiqarish jarayoni samaradorligi ko‘rsatkichlari¹⁶

| № | Ko‘rsatkichlar | 2021-yil | 2022-yil | Farqi | |
|---|--|----------|----------|---------|-------|
| | | | | miqdori | % da |
| 1 | Yillik ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi, m ³ | 7041,0 | 8000,0 | 859,0 | 112,0 |
| 2 | Mahsulot ishlab chiqarish tannarxi, mln so‘m | 3561,06 | 3147,11 | -413,95 | 88,3 |
| 3 | Yalpi foyda, mln so‘m | 447,29 | 1559,3 | 1112,01 | 348,6 |
| 4 | Umumxo‘jalik faoliyati foydasi, mln so‘m | - | 343,86 | 0,0 | 0,0 |
| 5 | Sof foyda, mln so‘m | - | 292,28 | 0,0 | 0,0 |

Amalga oshirilgan mazkur dissertatsiya tadqiqoti davomida muallif tomonidan mazkur korxonaning boshqaruv xodimlari bilan o‘zaro hamkorlikda korxonadagi ishlab chiqarish jarayonlari samaradorligini oshirish bo‘yicha bir qator takliflar va tavsiyalar ishlab chiqishga harakat qilindi. Jumladan, dissertatsiya muallifining loyihaviy boshqaruv metodini qo‘llash asosida korxonada innovatsion loyihalar portfelini shakllantirish va uni zamonaviy boshqaruv metodlari orqali boshqarish bo‘yicha bergan taklifi korxonada xodimlarida qiziqish uyg‘otdi. Mazkur taklifni ishlab chiqarish jarayonida amalda qo‘llab ko‘rishga qaror qilinib, buning natijasida “Buxoro temir-beton” MChJ da 2022-yilda ko‘rsatib o‘tilgan assortimentdagi qurilish materiallarini ishlab chiqarish samaradorligi o‘tgan 2021-yildagiga mahsulot ishlab chiqarish ko‘rsatkichlariga nisbatan oshganligi kuzatildi. Bunga korxonada mahsulot ishlab chiqarish tannarxi 2021-yildagi ko‘rsatkichga (3561,06 mln so‘m) nisbatan 2022-yilda 413,95 mln so‘mga kamaytirilishi ijobiy ta‘sir ko‘rsatib, natijada ishlab chiqarish samaradorligi quyidagicha oshganligi kuzatildi:

a) O‘tgan yilga nisbatan mahsulot ishlab chiqarishning absolyut o‘zgarishi:

$$8000,0 - 7041,0 = 859,0 \text{ m}^3;$$

b) Mahsulot ishlab chiqarishning nisbiy o‘zgarishi:

$$(8000,0 * 100) / 7041,0 = 112,0 \%$$

Bu shundan darak beradiki, hozirgi innovatsion rivojlanish jarayonlarida qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarini faoliyatiga zamonaviy boshqaruv metodlari, jumladan, loyihaviy boshqaruv metodini joriy qilish korxonalar faoliyatiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Yangi qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalarini yaratishdagi hozirgi bosqichning o‘ziga xosligi shundaki, bu materiallar ko‘pincha an‘anaviy materiallardan farq qilgan holda sifat jihatidan yangi iste‘molchilik xossalariga ega bo‘ladi. Bu omil iqtisodiy samaradorlikni aniqlash pozitsiyasidan prinsipial ahamiyatga egadir, chunki bu taqqoslanayotgan yangi ishlanmalarning endilikda mavjud bo‘lganlari bilan solishtiriluvchanligini ta‘minlash imkoniyatini qiyinlashtiradi.

Yangi qurilish materiallarining iqtisodiy samaradorligini aniqlashdagi o‘ziga xosliklarni ko‘rib chiqishda ta‘kidlash lozimki, birinchidan, ular nafaqat iqtisodiy,

¹⁶ Muallif tomonidan tayyorlangan.

